



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 12-aprel, shanba,
43 (24.069)-son

O'zbek xalq
maqoli

Tilagi yaxshi
kamol topar,
tilagi yomon -
zavol



Ўзбошимчалик билан эгалланган ерлар учун ижара ҳуқуқи эътироф этилди

**10 апрель куни халқ депутатлари
вилоят Кенгашининг навбатдаги, ўнинчи
сессияси ўтказилди.
Сессия ишини Кенгаш раиси Ш.Негматов
бошқарди.**

Дастлаб ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкалари ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш тўғрисидаги масала кўриб чиқилди.

Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан юртимизда 2018 йил 1 майга қадар ўзбошимчалик билан қурилган уй-жойларга ва ер участкаларига ҳуқуқ беришни тартибга солувчи "Ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкаларига ҳамда уларда қурилган бино ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш тўғрисида"ги қонун қабул қилинган ва 2024 йил 8 ноябрдан қучга кирган.

Вилоят кадастр органлари томонидан дастлабки хатлов натижаларига кўра, вилоятда 400 мингдан ортиқ фуқаронинг ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкаларини ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга нисбатан ҳуқуқлари эътироф этилмаганлиги аниқланган.

Қонуннинг 13-моддасига асосан, ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкаларини ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларни босқичма-босқич хатловдан ўтказиш ҳар йилги режа асосида амалга оширилади. Режа жадвал Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг тақлифига кўра, кадастр агентлиги томонидан тасдиқланган ва <https://etirof.kadastr.uz/> сайтида эълон қилинган.

Вилоят адлия бошқармаси бошлиғи С.Сатторовнинг қайд этишича, мазкур режа жадвалга кўра, вилоятимизда 2024 йилда 47 та, жорий йилнинг биринчи чорагида эса 75 та маҳаллада хатлов ишлари олиб борилиши белгиланган бўлса-да, 1 апрель ҳолатида 47 маҳаллада бу иш амалга оширилган.

Хусусан, Самарқанд шаҳрида шу пайтгача 39 маҳаллада хатлов ўтказилиши режалаштирилганига қарамай, 2 тасидагина бу жараён кечган.

Сессияда режа-жадвал бўйича хатлов ишларини ҳар бир маҳаллада ўз вақтида олиб бориш зарурлиги таъкидланди.

Вилоят адлия бошқармаси томонидан ваколатли ташкилотлар ҳулосаси асосида қонун бўйича дастлабки 30 нафар фуқаролар томонидан ўзбошимчалик билан эгаллаб олинган ер участкалари ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқ эътироф этиш тўғрисида Кенгаш қарори қабул қилинди.

Шундан сўнг, "Худудгаз Самарқанд" газ таъминоти филиали директори А.Мухаммадиевнинг вилоят ижтимоий ва

ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурлари доирасида газ таъминоти тизимини яхшилаш борасида 2024 йилда амалга оширилган ишлар ва жорий йилга мўлжалланган режалар юзасидан ҳисоботи тингланди.

Депутатлар табиий газ ва сўюлтирилган газ этказиб беришда мавжуд муаммолар бўйича масъулга саволлар бериб, ўз тақлиф ва тавсияларини билдирди.

Вилоят ИИБ бошлиғининг ўринбосари – жамоат хавфсизлиги хизмати бошлиғи Х.Умаров жорий йилнинг биринчи чорагида вилоятда жамоат хавфсизлигини таъминлаш борасидаги ишлар, жамоат хавфсизлигини таъминловчи ва унда иштирок этувчи субъектлар билан ҳамкорликда амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот берди.

Қайд этилишича, амалга оширилган профилактик чора-тадбирларга қарамасдан, ҳисобот даврида вилоят бўйича умумий жиноятлар 848 тадан 2169 тага кўпайган. Бу жиноятларнинг 885 таси (41 фоизи) ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган, яъни фуқаролар телефон кўнғироқлари ёки интернет орқали фирибгарлар тузоғига тушиб қолган.

Тазйик ва зўравонликдан жабрланган, 1261 нафар аёлга ҳимоя ордери берилиб, зўравонлик содир этган шахслар устидан таъсирчан назорат ўрнатилган (ўтган йил биринчи чорагида 470 нафар аёлга шундай ордер берилган). Зўравонликка учраган хотин-қизларнинг 6 нафарини вояга етмаганлар, 330 нафарини ёшлар ташкил қилди.

Йилнинг биринчи чорагида вилоятдаги 1126 маҳалланинг 815 тасида жиноят содир этилмаган. Жиноят қайд этилган 311 та маҳалланинг 63 таси "қизил", 248 таси "сарик" тоифадаги маҳаллалар ҳисобланади.

Аёллар ўртасида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар натижасида бу турдаги жиноятлар 50 тадан 44 тага камайди.

Кун тартибига мувофиқ, давлатимиз раҳбарининг 2024 йил 20 декабрдаги "Худудларда юқори иқтисодий ўсиш ва аҳоли бандлигини таъминлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш ҳамда бу борада маҳаллий ҳокимликларнинг роли ва масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарор асосида Булунғур туманини жадал комплекс ривожлантириш дастури доирасида амалга ошириллаган 28 та лойиҳани молиялаштириш учун 70 миллиард сўм маблағ ажратиш тўғрисида қарор қабул қилинди.

Шунингдек, сессияда вилоят маҳаллий бюджетининг кўшимча манбаларидан фойдаланиш тўғрисидаги, юридик шахсларнинг мол-мулк солиғи, ер солиғи ва сув ресурсларидан фойдаланганик учун солиқ тўлаш мuddатини кечиктириш (бўлиб-бўлиб тўлаш) тўғрисидаги ва бошқа масалалар кўриб чиқилиб, Кенгашнинг қарорлари қабул қилинди.

Kun nafasi



QILMISHIDAN PUSHAYMON BO'LGANLAR AFV ETILDI

Davlatimiz rahbarining Ramazon hayiti munosabati bilan qabul qilingan "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, samarqandlik 48 nafar shaxs afv etildi.

Viloyat IIB ma'lumotlariga ko'ra, xalqimizga xos ezgulik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va kechirimli bo'lish kabi olijanob fazilatlarning yorqin ifodasi bo'lgan mazkur hujjat asosida afv etilganlarning 44 nafar jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan edi. Ularning ikki nafari jazodan to'liq ozod etildi, 37 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 5 nafar mahkum-

ing jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi.

Afv etilganlarning ikki nafarini ayollar, 4 nafarini oltin yoshdan oshgan fuqarolar tashkil etdi.

– Farzand va nabiralarning ibrat bo'lib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan paytimda giyohvand modda noqonuniy savdosiga aralashib, ozodlik mahrum etilganimda qalbim og'iridi, – deydi Nurobod tumanida yashovchi B.R. – Jazoni

o'tash jarayonida qilmishimdan afsuslandim, pushaymon bo'ldim. Uyda, oila bag'rida tinch-osoyishta yashash qadrini angladim. Prezidentimizga ming rahmat, meni ham afv etdilar, jazoning o'talmay qolgan qismidan shartli ozod bo'ldim.

Shuningdek, farmonga ko'ra ichki ishlar idoralari probatsiya bo'linmalarini hisobida turgan 4 nafar shaxs jazodan to'liq ozod qilindi.

Mahalliy hokimliklar, tegishli idoralar tomonidan afv etilgan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda mahrum etilganimda qalbim og'iridi, – deydi Nurobod tumanida yashovchi B.R. – Jazoni

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufidagi tashkilotlar xodimlari o'rtasida "Eng faol ijtimoiy xodim" respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Eng faol ijtimoiy xodimlar aniqlandi



Unda tanlovning tuman va shahar bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 1000 nafarga yaqin ijtimoiy xodim ikki yo'nalish bo'yicha besh bosqichda bellashdi.

Tanlov natijasiga ko'ra, "Eng faol ijtimoiy xodim" yo'nalishida Kattaqo'rg'on shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimi Sirojiddin Sharopov muvofiq g'olib bo'ldi. "Eng faol ijtimoiy xodim assistenti" yo'nalishida esa Samarqand shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimi Zahro Xolto'rayeva birinchi o'rinni egalladi.

G'oliblar tanlovning respublika bosqichiga yo'llanma oldi va diplom, pul mukofoti bilan taqdirlandi.



DXX kubogi musobaqalari boshlandi

Ishtixon tumanidagi markaziy o'yin-gohda futbol va mini-futbol bo'yicha "Davlat xavfsizlik xizmati kubogi" bahslariga start berildi.

Musobaqaning ochilish marosimida viloyat hokimligi, DXX viloyat boshqarma, sport boshqarma va tuman hokimligi mas'ullari ishtirok etdi.

Musobaqada 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar futbol va mini-futbol, qizlar esa mini-futbol bo'yicha ishtirok etmoqda.

Kubokning tuman/shahar saralash bellashuvlari aprel-may, viloyatlar bosqichi iyun-iyul va respublika final musobaqalari avgust oyida bo'lib o'tadi.

F.RO'ZIBOYEV.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, bu boradagi madaniyatni yuksaltirish orqali omma ongida shakllangan "suv - tekini" tushunchasidan voz kechib, suvga bo'lgan munosabatni butunlay o'zgartirishimiz shart va zarur.

Shu maqsadda davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-yanvardagi qarori bilan tuman irrigatsiya bo'limlari negizida "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari tashkil etildi. Suv resurslaridan foydalan-ganlik uchun soliqdan davlat budjetiga tushgan tushumning 40 foizini to'g'ridan to'g'ri yo'naltirish orqali ushbu tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish va ekspluatatsiya qilish yo'lga qo'yildi.

Suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilinganida hamda sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lashash uskunolari (gidropost) asosida aniqlanganida suv solig'i stavkasiga kamaytiruvchi koeffisi-yent qo'llaniladi. Suv tejaydigan sug'orish



texnologiyalari joriy qilinmaganda hamda sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lashash uskunolari asosida aniqlan-maganda suv solig'i stavkasiga oshiruvchi koeffitsiyent qo'llanilishi belgilangan.

Ya'ni, davlat budjetiga ortiqcha yuk bo'lishiga qaramasdan, suvni tejayot-ganlarni rag'batlantirish choralari ko'ri-lyapti. Davlat olib borayotgan bu siyosat joylarda qanday tushunilyapti? Umuman, Prezidentning yuqorida qayd qilingan qarori qay darajada ijro qilinmoqda?

Afsuski, tahlillar joylarda bu bora-da ayrim sustkashliklar mavjudligini

ko'rsatmoqda. Jumladan, qarorga asosan, "Suv yetkazib berish xizma-ti" davlat muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida zarur bino va joy bilan ta'minlash vazifasi tuman hokimlariga yuklatilgan. Biroq Ishtixon, Jomboy, Qo'shrabot va Nurobod tumanlari "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari ma'muriy bino bilan ta'minlanmagan.

O'rganishlar suv resurslaridan foyda-lanish holati ham bugungi talabga mos emasligini ko'rsatmoqda.

Misol uchun, viloyatga (2024-2025-yil-lar) kuzgi-qishgi mavsum uchun ajratilgan cheklangan suv miqdori 424 million metr kub bo'lib, tumanlarda suvdan foyda-lanish holati tahlil qilinganida amalda 449 million metr kub (limitdan 25 million metr kub ortiqcha) suvdan foydalanilgani aniqlandi.

Xususan, Past Darg'om tumanida 44,3 million metr kub, Paxtachida 26,7 million metr kub, Payariqda 17,2 million metr

kub, Oqdaryoda 6,5 million metr kub, Narpay tumanida 3,7 million metr kub suvdan ortiqcha foydalanilgan.

Albatta, bu holatning kelib chiqishi, ya'ni suvdan belgilanganidan ortiqcha ishlatilishiga suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilinmayotgani ham sabab bo'lmo-qda. Chunki viloyat bo'yicha rejadagi 7 ming gektar o'rniga amalda bor-yo'g'i 121 gektar (1,7 foiz) maydonda tomchi-latib sug'orish joriy qilingan.

Jumladan, Bulung'ur tumanida 63 gektar yoki 7 foiz, Jomboy tumanida 58 gektar yoki 6 foiz maydonda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilingan.

Boshqa tumanlarda esa bu boradagi rejalar umuman bajarilmagan.

Bundan tashqari, viloyatda 3 ming 200 gektar maydonda yomg'irlatib sug'orish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 415 gektar yoki 12 foiz maydonda belgilangan ishlar yo'lga qo'yilgan.

Umuman, joriy yilda suv tejoyvchi tex-nologiyalarni joriy etish ishlari bor-yo'g'i

676 gektar yoki 4 foiz maydonda tashkil etilgani masalaga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini taqozo etmoqda.

Bundan tashqari, klaster va fermer xo'jaliklarining 1600 kilometr ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish rejalashtirilgan. Tuman hokimliklari tomonidan berilgan hisobotlarda 863,2 kilometrda tegishli ishlar bajarilgani ko'rsatilgan.

Ammo joyiga chiqib o'rganib ko'rilganda amalda 220 kilometr sug'orish tarmoqlari betonlashtirilgani yoki belgilangan ishlar 14 foizga bajarilgani oydinlashdi.

Albatta, mas'uliyatni unutilib qo'ygan mutasaddilarga nisbatan tegishli ta'sir choralari ko'riladi. Ammo faqat bu bilan oldimizga qo'yilgan maqsad va vazifaga erishib bo'lmaydi. Shu bois, dala ishlari boshlanishidan avval qilinadigan ishlar jiddiy muhokama qilinib, aniq chora-tad-birlar belgilab olindi.

Axror TOSHNAZAROV,
viloyat hokimi o'rinbosari
kotibiyat mudiri.

Suvni tejashni qachon o'rganamiz?

Dolzarb mavzuda





“Samarqand ruhi”dan ilhomlanib...

Samarqand xalqaro anjumanlarga mezbonlik qilishi odat tusiga kirdi

2022-yilning 15-16-sentabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotining 22-sammitini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida Yer yuzining sayqali hisoblangan Samarqand tom ma’noda katta bayramlar og‘ushiga burkangan, ertaknamo maskanga aylangandi. O‘sha kunlardan to bugungi dorilamon kunlarimizgacha o‘tgan qisqa davrda bunday katta-kichik xalqaro anjumanlardan yana qanchasi Samarqandimizda ko‘tarinki ruhda o‘tkazilganligi maqolamiz sarlavhasidagi fikrimizga dalil bo‘ladi.

Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi birinchi sammitiga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘rildi. 27 davlatni birlashtirgan Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo bilan mintaqalararo darajada tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan yirik tuzilma hisoblanadi. “Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi” ilk sammitining aynan yur-timizda - ko‘hna Samarqandda o‘tkazilishi esa tarixiy voqeilikdir.

Davlatimiz rahbari Samarqanddagi mazkur sammit oldidan “Evronews”ga intervyu berdi. Intervyu ma-halliy va xorijiy ekspertlar, siyosatchilar va deputatlar tomonidan e‘tirof etildi. Jumladan, Yevropa Ittifoqin-ing O‘zbekistondagi elchisi Tayvo Klaarning fikrlari diqqatimizni tortdi. Elchi jumladan shunday deydi: “Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida bir necha sohalarida hamkorlik olib borilmoqda. Kelgusi yillarda Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasidagi muhim hamkorlik sohalaridan biri xalqning ehtiyojlariga javob beruvchi infratuzilma, masalan, suv, transport, yo‘llar va boshqa imkoniyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlash bo‘ladi. Biz bu borada ham O‘zbekis-ton hukumati bilan hakorlikda ishlashga tayyormiz. Chunki bu mamlakat rivojlanishida muhim sohalar-dan biri hisoblanadi”.

Ushbu sammit O‘zbekiston uchun nafaqat muhim siyosiy voqea, balki amaliy imkoniyatlar manbai ham. Tadbirning aynan Samarqandda o‘tkazilishi O‘zbekistonning xalqaro imiji va nufuzini oshira-di. Xususan, sammitga mezbonlik O‘zbekistonning mintaqadagi yetakchi davlat sifatidagi o‘rnini mus-tahkamlaydi. Mamlakat tashqi siyosatining ochiq, pragmatik va muloqotga tayyor ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro siyosiy va iqtisodiy kuchlar bilan muloqotda teng huquqli sherik sifatida ishtirok etish O‘zbekistonning diplomatik sa-lohiyatini mustahkamlaydi. Bu bilan mamlakat o‘zini mintaqadagi yetakchi kuch sifatida ko‘rsata oladi, bu esa keyingi xalqaro muzokaralarda siyosiy manyovr imkoniyatlarini kengaytiradi. U nafaqat ikki tomonla-ma munosabatlarni mustahkamlaydi, balki mintaqqa-viy barqarorlik, iqtisodiy o‘shish va siyosiy hamkorlik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, joriy yilning 31-mart kuni Tojikistonning Xo‘jand shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlat rahbarlari ishtirokidagi sammit va uning natijasida “Davlat chegaralarining uchrashish nuqtasi to‘g‘risi-da”gi bitimning imzolanishi mintaqaviy birlik va faro-vonlik sari muhim qadam bo‘ldi.

Biz bugun yuqorida qayd etilgan muhim xalqaro anjumanlar va ularning tafsilotlariga batafsil to‘xtal-masdan, mazkur anjumanlarning mamlakatimiz iqt-i-sodiyotiga va xususan, turizm sohasining rivojlanishi-ga bo‘lgan katta ijobiy ta’siri, ochilishi kutilayotgan keng yo‘l va imkoniyatlar haqida muxtasar to‘xtal-moqchimiz. Zero, turizm va uning istiqboli mamlakat taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri ekanligi fikrimiz tasdiq‘idir.

Davlatimiz rahbari aynan Samarqand shahri tanlanganligi haqida to‘xtalib, bundan olti asrdan ortiqroq vaqt muqaddam Movarounnahr hukmdori Amir Temur erkin va xavfsiz savdo-sotiqni ta‘minlash maqsadida Yevropa podshohlari bilan faol aloqada bo‘lganligini yodga olib, Samarqand asrlar davom-ida savdo, ilm-fan va diplomatiya markazi bo‘lgani madaniyatlar, xalqlar va g‘oyalarni birlashtiradigan shahar ekanligini ifodalab berdi.

Xuddi shunday xalqaro anjumanlarni ijtimoiy tarmoq va OAV orqali kuzatib borish jarayonida ona Vatanimiz - O‘zbekistonning va xususan, Samar-qandimizning insoniyat tarixida tutgan o‘rni, dunyo tamadduniga qo‘shgan hissasi, bugungi mavqei haqida tarixiy shaxslar fikrlarini solishtirish ishtiyoqi tug‘iladi.

1404-yilda Samarqandda Amir Temur saroyida bo‘lgan Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III (1390—1406)ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yo‘l xotiralaridan iborat, ya’ni uning 1403-1404-yillar Turkiya, Eron va Movarounnahrd, xususan, Amir Temur saroyida ko‘rgan-bilganlarini o‘z ichiga ol-

gan muhim asari «Kundalik»da “*Temur davlatining shon-shuhrati Ovro‘po mamlakatlarigacha borib ye-tdi. Angliya, Fransiya, Ispaniya, Genuya va Vizantiya singari davlatlarning hukmdorlari Amir Temur bilan siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlar o‘rnatishga intilib, ulug‘ jahongir huzuriga muntazam ravishda o‘z elchilarini yuborib turdilar*”, deb yozadi. Shun-ingdek, mazkur asarida elchi o‘sha vaqtlarda Amir Temur qo‘l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli, xalqining kun kechirishi, Temur va uning yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar, qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do‘konlar, ustaxonalar, temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O‘rda (Klavixo uni Tatariston deb ataydi), Mo‘g‘uliston va boshqa mamlakatlar bilan bo‘lgan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar va nihoyat, Sohobqironning oilasi va ularning mamlakat-niing ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni haqida e‘ti-borga molik ma‘lumotlar keltiradi: «Bu yurt don-dun, may, meva-cheva, parranda go’shti, boshqa har xil go’sht, qo‘yingki, hamma narsaga boydir... “Samar-qand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa mamlakatlardan, shuningdek, benihoyat boy Samarqand saltanatining o‘zidan keltirilgan mollar sotiladi”.

Buyuk Ipak yo‘lining durdonasi bo‘lgan qadimiy Samarqand shahrida Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan “Markaziy Osiyo-Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti mintaq va Yevropa hamkorligi tarixida mu-vaffaqiyatning yana bir sahifasini ochishiga shubha yo‘q. Ko‘p asrlar mobaynida bu shahar Yevropadan Xitoygacha bo‘lgan mamlakatlarni mustahkam rishtalar bilan bog‘lab, Shimol va Janubni, Sharq va G‘arbnl yagona chorrahada tutashtirgan.

Bu tabarruk zaminda yashaydigan har bir odam, yaxshi qo‘shni – bu Xudo insonga ato etgan baxt-niing bir bo‘lagi ekanini, tinch-totuv qo‘shnichilik esa barakat manbai ekanini yaxshi anglaydi. Zero, ham-korlik, savdo, ijod, ilm-fan va san‘at, insoniy g‘oyalar ustuvor bo‘lgan joyda ezguliklar ko‘payadi, xalqlar farovon va o‘zaro ahil yashaydi.

Bugun zamonaviy va jadal rivojlanayotgan infra-tuzilmalarga ega bo‘lgan Samarqandning bunday noyob jihatlari uni mintaqaviy va global xatarlarni birgalikda muhokama qilish, bu borada zarur ye-chimlarni izlab topish uchun eng qulay va maqbul maydonga aylantirmoqda.

Insoniyatning bir butunligi va o‘zaro bog‘liqligi shu darajada yuqoriki, mavjud xatarlarning aksari-yati nafaqat mintaqalar, balki umumjahon miqyosida hamkorlik qilishni taqozo etmoqda.

Ko‘p yillik birgalikdagi ishlarimiz tajribasiga tayan-ib, ishonch bilan aytamizki, “Markaziy Osiyo-Yevropa Ittifoqi” birinchi Samarqand sammiti umumiy xavfsi-zlik va taraqqiyot yo‘lidagi o‘zaro hurmat, ishonch, konstruktiv hamkorlik prinsiplariga asoslangan yangi, inklyuziv muloqotni yo‘lga qo‘yish borasida o‘ziga xos namuna bo‘la oladi.

Statistika milliy qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra joriy yilning yanvar-fevral oylarida yurtimizga 1,3 mil-lion nafar xorijiy sayyoh kelgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga ko‘ra 361 ming nafarga oshgan. Sayyohlarning asosiy qismi Qirg‘iziston (422 ming), Tojikiston (401 ming), Qozog‘iston (199 ming), Rossiya (91 ming), shuningdek, Turkman-iston, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mustasar aytganda, shonli Samarqandimizning sharaflil o‘tmishi, xususan, Amir Temur davri va o‘sha davrdagi xalqaro e‘tirof hamda bugungi yangi O‘zbekistonimiz, xossatan Samarqandimizning mint-aqa va jahon maydonidagi nufuzi va mavqei, xalqaro ekspert va katta-katta rahbarlarning e‘tiroflari bilan o‘tgan mazkur anjuman “Samarqand ruhi”ni davr ta-lablariga mos, yangi maqsad va rejalarimizga uyg‘un ravishda to‘ldirib turadi.



Qayum SOBIROV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a‘zosi, mustaqil tadqiqotchi.

Milliy qadriyatlar fuqarolik mas’uliyati va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlar ta’lim-tarbiyasi kelajak avlod ongi va qadriyatlarini shakllantirishda tamal toshi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni katta.

Milliy qadriyatlarimiz yoshlarning ma’naviy-ax-loqiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga yo‘l ko‘rsatuvchi, ularda o‘zlikni anglash, o‘z jamiyati va merosiga daxldorlik, mas’uliyat tuyg‘ularini singdiruvchi kompas bo‘lib xizmat qiladi. Bu qa-driyatlarni ta’lim-tarbiya tizimiga singdirish orqali biz nafaqat ajdodlarimizning an‘analarini e‘zozlay-miz, balki yoshlarni jamiyatimizning faol ishtirok-chisi bo‘lishga tayyorlaymiz.

Bugun mamlakatimizda yoshlar uchun shu qadar ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bir va-qtda, ayrim ko‘ngilsiz hodisalar insonning dilini xira qiladi. Yaqinda Samarqand shahridagi ISFT instituti talabasi ko‘p qavatli turarjoy binosidan

o‘zini tashlab, vafot etdi. Bu holatga qanday qarashni ham bilmay qolamiz go‘yo. Chunki ushbu holatning o‘ziyoq ayanchlidir. Afsuski, bunday hodisalar bugungi kunda juda ko‘p uch-ramoqda.

Har qanday holatda ham eng avvalo, oiladagi tarbiya, undagi muhit juda katta rol o‘ynaydi deb hisoblayman.

Milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz asosini tashkil etuvchi e’tiqod, urf-odat va ideallarni o‘zida mu-jassam etgan. Ushbu qadriyatlarni ta’lim tizimiga kiritish orqali biz yosh avlodda ularning ildizlari, tarixi va jamoaviy o‘ziga xosligini chuqur qadrlash tuyg‘usini singdiramiz. Yoshlar tarbiyasini halollik, hurmat va rahm-shafqat tamoyillariga asoslash orqali biz nafaqat individual fe‘l-atvorning rivojla-nishiga yordam beramiz, balki o‘zaro tushunish va bag‘rikenglik asosida qurilgan ahil va jamiyatni shakllantiramiz.

Himmat OQBO‘TAYEV,
“Adolat” SDP viloyat kengashi raisi,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Rivojlangan infratuzilma

iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi

Investitsiya - zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosi. Bu daromad olish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy infratuzilma va aholi turmush darajasini yaxshilash maqsadida kapitalni turli loyihalarga yo‘naltirish jarayonidir. Investitsiyalar milliy iqtisodiyotni shakllantirish va ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, infratuzilmani rivojlantirish investitsiyalar va iqtisodiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

Investitsion faoliyat va infratuz-ilmani rivojlantirish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Rivojlan-gan infratuzilma iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun asos bo‘ladi.

Mamlakatda rivojlangan infra-tuzilmaning yaratilganligi tranzak-siya xarajatlarini kamaytirishga, logistika sifatini yaxshilashga, aloqa va iste‘molchilar hamda ishlab chiqaruvchilar uchun qulay-likni yaxshilashga yordam beradi. Masalan, yuqori sifatli avtomobil va temir yo‘llarning mavjudligi tovarlarni yetkazib berish vaqtini va narxini kamaytiradi. Bu esa ishlab chiqarish va savdo sohalar-ida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun juda muhim. Transport va energetika infratuzilmasi yirik sanoat majmualari, kichik va o‘rta biznes, shuningdek, davlat sek-torining uzluksiz ishlashini ta‘min-laydi.

Axborot-telekommunikatsiya in-fratuzilmasini rivojlantirish keyingi yillarda iqtisodiy o‘shishning muhim omiliga aylandi. Aloqa tarmoqlari, internet, biznesni raqamlashtirish va yangi axborot texnologiyalarini yaratish tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochib, tashqi bozorga chiqishdagi to‘siqlarni kamaytiradi va biznesni raqobatbardosh qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, agar infratuzilma notekis rivojlangan yoki yomon ahvolda bo‘lsa, bu ayniqsa, chekka va rivojlanmagan hududlarda investitsion faoliyat



jarayoniga to‘sqinlik qilishi yoki jarayoni sekinlash mumkin.

Infratuzilmani rivojlantirish katta kapital qo‘yilmalarni talab qiladi. Bu o‘z navbatida iqtisodiy o‘shish-niing muhim dvigateliga aylanadi. Infratuzilmaga investitsiyalarni boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun o‘ziga xos poydevor sifati-da ko‘rish mumkin.

Masalan, yangi transport uz-el-larini yaratish yoki energetika in-fratuzilmasini modernizatsiya qilish ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiribgina qolmay, qurilish, sanoat, logistika va savdo kabi turdosh tarmoqlarning rivojla-nishiga ham xizmat qilmoqda.

Infratuzilma loyihalariga sar-moya kiritish nafaqat muhim iqtisodiy qadam, balki ijtimoiy muammolarni hal etish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi turmush darajasini oshirish yo‘lidir. Infra-tuzilmaning ahamiyatini tushungan davlatlar kelajak muammolariga dosh bera oladigan barqaror va farovon iqtisodiyotlarni yaratishi mumkin.

Oltin ASHUROVA,
SamiSI katta o‘qituvchisi.

Endi quruvchining sertifikatini bo‘lishi lozim

Qurilish sohasi mutaxassislari qayta o‘qitilib, ularning faoliyatini sertifikatlash tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda. Arxitektura, qurilish, muhandislik va kommunal xo‘jaligi sohalaridagi kadrlar malaka sertifikatiga ega bo‘lmasa, tizimda ishlay olmaydi. Ular har 3 yilda bir marta malaka oshirishi, sohaga oid zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Bu borada Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzurida tashkil etilgan Kompetensiyani rivojlantirish instituti hamda uning hududiy filiallari soha mutaxassislarni sertifikatlash ustida ish olib bormoqda. Institutning Samarqand hududiy filialida ham shaharsozlik va kom-munal xo‘jalik sohalariga oid yo‘nalishlarda quruvchi kadrlarni tayyor-lash va ularning malakasini oshirish yo‘lga qo‘yildi.

- Hozirga qadar filialimiz tomonidan 5 yo‘nalish bo‘yicha 313 nafar xodimning malakasi oshirilib, sertifikat berildi, - deydi Kompetensiyani rivojlantirish instituti Samarqand hududiy filiali direktori Adham Rajabov.

Filialda mutaxassislarning malaka talablariga mosligi, bajarayotgan ishlari sifatini oshirish, shaffoflik va raqobatbardoshlikni ta‘minlash, xalqaro standartlarga mos ish yuritish kabi mexanizmlarni bosqich-ma-bosqich joriy etish borasida ko‘nikmalar mustahkamlanadi.

Dilmurod TO‘XTAYEV.



Ikki oyda 200 million dollardan ortiq sarmoya jalb etildi

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va davlat kafolati ostida bo‘lmagan xorijiy kredit mablag‘lari ishtirokidagi 108 ta loyiha hisobiga 204,1 million dollarlik investitsiya mablag‘lari o‘zlashtirildi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobarga ko‘p hisoblanadi.

O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 52 foizi Xitoy, 9 foizi Turkiya hissasiga, shuningdek, Niderlandiya va Birlash-gan Arab Amirliklarga 6 foizdan to‘g‘ri keldi.

Viloyatni ijtimoiy-iqti-sodiy rivojlantirish bo‘yicha tasdiqlangan hududiy investitsiya das-turiga ko‘ra, 2025-yiln-ing yanvar-fevral oylarida qiymati 36,5 million dol-larlik 78 ta loyiha ishga tushirilib, 840 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Natijada sanoat so-hasida 20 ta loyihada 223 ta, xizmatlar sohasi-da 48 ta loyihada 563 ta, qishloq xo‘jaligida 10 ta loyihada 54 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Misol uchun, Samar-qand tumanida joylash-gan qiymati 10,5 million dollar bo‘lgan “Marjona Diyor Tekstil” MChJ tomonidan “Xususiy institut, savdo do‘kon-laridan iborat zamonaviy kompleks tashkil etish” loyihasi ishga tushirilishi natijasida 200 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi axborot xizmati.

Hayotda qiziq aksioma bor, barcha sog'lom va uzoq umr ko'rishni istaydi, ammo buning uchun amal qilish shart bo'lgan sog'lom hayot tarziga hamma ham amal qilavermaydi. Kasal paytidagina sog'lom yurgan holatining qadriga etib, tuzalsam, sog'lom turmush tarziga amal qilaman, deb ahd qiladi.

Dard botmonlab kelar, misqollab chiqar

Sog'lom turmush tarzining eng asosiy ustunlaridan biri – bu sog'lom ovqatlanish. Garchi sog'lom ovqatlanish borasida ko'pchilikda umumiy tushuncha bo'lsa-da amal qilishga kelganda aksariyat holatda beparvomiz. Shuni inobatga olib, sog'lom ovqatlanishning ahamiyati, noto'g'ri ovqatlanishdan kelib chiqadigan kasalliklar borasida yana bir bor mulohaza yuritsak.

Tibbiyot va oziq-ovqat fanlari sohasidagi tadqiqotlar to'g'ri ovqatlanish bir nechta asosiy omillarga ta'sir qilishini ko'rsatgan.

Misollarga to'xtalamiz. Eng ko'p uchraydigan yurak-qon tomir kasalliklarini keltirib chiqaradigan asosiy omil aynan noto'g'ri ovqatlanish bilan bog'liq. Bugun viloyatda 89 ming nafar aholi yurak-qon tomir kasalliklari bilan dispanser hisobida turadi. 46 mingga yaqin aholi esa qandli diabet kasalligi oqibatida shifokor nazoratida. Shuningdek, immunitet tanqisligi, semizlik va diabet,

osteoporoz va suyak muammolari, hatto ruhiy salomatlikning buzilishi ham ko'pincha aynan noto'g'ri ovqatlanish oqibatida kelib chiqmoqda.

To'g'ri ovqatlanish va uzoq umr ko'rish o'rta-sidagi bog'liqlikni tasdiqlovchi tadqiqotlar ko'p. Masalan, Janubiy Koreya va Yaponiya aholisi dunyoda eng uzoq umr ko'ruvchi millatlardan hisoblanadi. Bu esa ularning baliq, sabzavot va kam yog'li mahsulotlarga boy parhezga amal qilishi bilan bog'liq.

Janubiy Yevropa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Gretsiya) aholisi o'rtasida yurak-qon tomir kasalliklari kam uchraydi. Buning asosiy sababi ularning an'anaviy parhezga rioya qilishidir.

Amerika va Yevropada esa semizlik muammosi keskin oshmoqda. Masalan, AQShda kattalarning 42 foizi semizlikdan aziyat chekaypti.

Har bir inson ovqatlanish madaniyatiga e'ti-

Sog'lom turmush tarzi



bor berishi va quyidagi qoidalarga amal qilishi zarur:

muvozanatli ratsion. Kunlik ratsionda oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va minerallar miqdori muvozanatli bo'lishi kerak;

tabiiy va toza mahsulotlar. Qayta ishlangan, konservantli va sun'iy qo'shimchalarga boy oziq-ovqatlardan qochish kerak;

kam tuzli va kam shakarli ovqatlar. Tuz va shakarning me'yordan ortiq miqdori qon bosimi va diabetga sabab bo'ladi;

ko'p suv ichish. Kun davomida yetarli miqdorda suv ichish tanadagi barcha fiziologik jarayonlarni normallashtiradi;

ovqatlanish va jismoniy faollik. Faol harakat qilish to'g'ri ovqatlanish bilan uyg'unlashganda, organizm yanada samarali ishlaydi; Noto'g'ri ovqatlanish sababli yuzaga kelayotgan kasalliklarning oldini olish uchun har bir inson o'z ratsioniga e'tibor qaratishi kerak.

Botmonday dardni o'zingizga o'zingiz o'tirtirib, uni yillab davolab, ya'ni misqollab kamaytirishdan ko'ra, vaqtda oldini olganingiz ming marta afzal.

Baxtiyor BAYXANOV,
salomatlik va strategik rivojlanish instituti
hududiy bo'limi boshlig'i.

Хотира



Давраларнинг дилкаши эди....

Тажрибали педагог, физика-математика фанлари номзоди Мухтор Пирназаров ҳаёт бўлганида бу йил 80 ёшни қаршилар эди. Афсуски, бешафқат ўлим қадрдонимизни 69 ёшида орамиздан олиб кетганди.

Мухтор Пирназаров 1945 йил 12 апрелда Тойлоқ тумани Жумабозор қишлоғида туғилган. 1962 йилда тумандаги 65-ўрта мактабни битириб, шу ерда лаборант бўлиб ишлади. Орадан бир йил ўтгач, Самарқанд давлат университети физика факультетига ўқишга киради. Талабалик даврида 3 йиллик ҳарбий хизматни ҳам ўтади. 1972 йилда ўқишни тугатиб, университетда ўз фаолиятини давом эттиришга қарор қилди.

Мухтор аканинг талабаларни жамоатчилик ишларида, айниқса, спорт мусобақаларига тайёрлашдаги ташкилотчилиги ўша вақтдаги университет ректори, академик А.Отаҳўжаевнинг эътиборига тушади. Шу сабаб М.Пирназаров кўп йиллар СамДУ кўнгиллилар дружинасининг бошлиғи сифатида Самарқанд шаҳрида аҳолининг тинчлигини таъминлашда ички ишлар органларига яқиндан ёрдам берди.

Мухтор ака ўзининг хушчақчақлиги, одамлар билан тезда тил топишиши, кўнгли очиклиги туфайли нафақат университет профессор-ўқитувчилари, балки талабалар орасида ҳам ҳурмат қозонди. М.Пирназаров 1983-1988 йилларда Москвадаги илмий тадқиқот институтида аспирантурада ўқигач, номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди ва Самарқанд давлат педагогика институтининг умумтехник фанлари кафедрасида катта ўқитувчи бўлиб ишлади.

Фарзандлар катта бўлиши билан оила ташвишлари, шунингдек, қишлоғидан Самарқанд шаҳрига қатнаб ишлашининг ўзига хос томонларини эътиборга олган ҳолда Мухтор домла Ургут туманидаги Қайроқли қишлоғидаги мактабда ўқувчиларга физика ва астрономия фанларидан сабоқ берди.



Жумабозорнинг тўй-маъракалари Мухтор домласиз ўтмасди. Ширин сўзи, чиройли муомаласи билан эл кўнглидан жой олган Мухтор аканинг хонадони доимо қариндош-уруғ ва яқин дўстлари билан гавжум бўларди.

Ҳеч эсимиздан чиқмайди, 2014 йилда Мухтор аканинг туғилган куниди уйига қириб бордик. Уй тўла меҳмон, барчаси домла билан бирга ишлаган ўқитувчи-мураббийлар экан. Улар билан дилдан суҳбат қилдик, айниқса, Мухтор аканинг ҳазил-хузуллари даврага ўзгача руҳ бағишлади.

М.Пирназаров қалби дарё, шогирдларига меҳрибон устоз эди. Уни нафақат таълим даргоҳларининг профессор-ўқитувчилари, балки Тойлоқ, Ургут, Самарқанд туманларидаги кўплаб танишлари яхши билишарди. Унинг қувноқ ва ҳазилкашлиғи, тантилиғи, тўй-маъракалардаги фаоллиги кўпчиликка танитган эди.

2014 йилда Мухтор домла вафот этганини эшитиб, шундай билимдон, хушчақчақ ва дилкаш инсон энди орамизда бўлмаслигини тасаввуримизга ҳам сиғди-ролмас эдик. Мана, орадан ўн йилдан кўп вақт ўтибдики, у кишининг инсонийлик фазилатларини ҳар кунги эслаймиз, ёдга оламиз.

Шавкат МАХМАНУРОВ,
Мўмин ҚОДИРОВ.

Xodimlarning korrupsiyaning oldini olish borasidagi bilimlari oshirildi

Samarqand shahrida viloyat prokuraturasi hamda Samarqand davlat universiteti hamkorligida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat tizimini boshqarish bo'yicha uch kunlik o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Viloyat darajasidagi 74 ta idora va tashkilotdan ming nafardan ortiq xodimlar jalb qilingan o'quvda mutaxassislar tomonidan korrupsiya tushunchasi, uning kelib chiqish sabab va oqibatlari, unga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish borasida bajarilishi zarur bo'lgan ishlar xususida tushuncha berildi. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va hududiy kengashlarning asosiy vazifalariga to'xtalib o'tildi.

– O'quv mashg'ulotlari ikki bosqichda olib borildi, - deydi viloyat prokuraturasi bo'lim katta prokurori Ilyos Halmatov. – Birinchi bosqichda shahar va tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan idora va tashkilotlar xodimlari

qatnashdi. Mashg'ulotlarda berilgan mavzularni yanada keng tarqatish maqsadida Samarqand davlat universiteti bilan hamkorlikda o'quv qo'llanma ishlab chiqyapmiz. Bu albatta, nafaqat ishchi xodimlar hushyorligini oshirishga, balki aholini ham korrupsion holatlarga aralashuvining oldini olishga xizmat qiladi. O'quv kurslariga viloyatdagi oliy ta'lim muassasalaridan 30 nafarga yaqin siyosatshunos, huquqshunos, filolog va boshqa yo'nalishtar bo'yicha malakali professor-o'qituvchilar qatnashdi.

Mashg'ulotlar tinglovchilardan test sinovlari olinib, har bir idora xodimining korrupsiyaga oid qonunlarni bilish darajasiga baho berildi.

Husan ELTOYEV.

Ўзбекистон касаба уюмларига 120 йил



Бу сурат 2021 йилда Хотира ва кадрлаш кунни арафасида олинган. Байрам муносабати билан устозимиз, узоқ йиллар таълим тизимида, касаба уюшмаларида самарали фаолият кўрсатган Барот Амировни хонадонларига йўқлаб боргандик.



Нондек азиз бўлинг!

Турли байрамлар, муҳим саналар арафасида касаба уюшмалари тизими фахрийлари, устозлар ҳолидан хабар олиш, уларни байрам билан табриклаш яхши анъанага айланган. Аслида бу касаба уюшмаларининг асосий йўналишларидан бири. Ўзимиз ибрат бўлмасак, бошқалардан нима кутамиз.

Паст Дарғом томон борар эканмиз, совға-саломдан ташқари йўлдан иккита иссиқ нон сотиб олдим. Бировнинг хонадонига нон кўтариб бориш қандай яхши.

Барот ака олиб борган совғаларимизни набираларига тутқазди-ю? қўлимиздаги нонни олиб, дастурхонга қўйди ва “нондек азиз бўлинглар” деб дуо қилди.

Устоз билан анча суҳбатлашдик, вилоятимиз касаба уюшмалари ташкилотларида

ишлаган сафдошлари, дўстларини эсладик. Айниқса, Ҳасан Нормуродов ҳақида жуда яхши хотиралар, ибратли ишларни ёдга олди. У кишининг Самарқанд учун, вилоятимиз таълим соҳаси ва касаба уюшмалари учун қилган хизматлари ҳақида сўзлаб берди.

Бугун Барот бобо орамизда йўқ, лекин кўп давраларда бу файзли инсонни ёдга оламиз, серқирра фаолияти, мазмунли ҳаётини бошқаларга ибрат қилиб кўрсатамиз.

Ифтихор РАҲИМОВ,
Ўзбекистон таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси республика кенгашининг вилоят бўйича масъул ташкилотчиси, вилоят раислар кенгаши раиси.

РЕКЛАМА, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TA'SISCHILAR DIQQATIGA!

Qo'shrabot tumanidagi "Oqtepasoy dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sis-chilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 14-aprel kuni soat 11:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.

Manzil: Qo'shrabot tumani "Oqtepasoy" MFY. JAMIYAT MA'MURIYATI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Rustamova Nasiba Sharopovnaga (2022-yil 17-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko'chasi, 62-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarius idorasida marhum Sulaymanov Saloxiddin Nurullayevichga (2014-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Tashmanov Nomozboyga (2024-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodulla-

evna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Adjimambetov Sadredinga (2021-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Dilshod Pirmamatovich notarial idorasida marhum Elmurodova Shafoga (2024-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Dilshod Pirmamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 67-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Aliyev Isaga (1988-yil 1-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Achi-

lov Raim Tashpulatovichga (2024-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Shomuradova Sanovarga (2013-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Kaxarov Urok Kaxarovichga (2022-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Sadikov Abdualim Abduraimovichga (2023-yil 15-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ishankulov Gulyamga (1977-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Radjabova Rustaga (1992-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Abdullayeva Sayora Gaybullayevnaga (2024-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 156-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Shakirov Erkin Abdusalikovichga (2023-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan mer-

osxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Ishonkulova Zuxro Amonovnaga (2023-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

BEKOR QILINADI

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2019-yil 4-noyabrda 3210-son bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan Payariq tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining (STIR: 207171251) qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasi va yangi tahrirdagi nizomining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Past Darg'om tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoasi maktabda uzoq yillar boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi vazifasida ishlagan oliy toifali o'qituvchi, mehnat faxriysi

Mahkamtosh USMONOVaning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Past Darg'om tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoasi maktab meto-dist-o'qituvchisi, mehnat faxriysi To'ra Jo'rayevga turmush o'rtog'i

Mahkamtosh USMONOVaning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Турмуш чорраҳаларида



Анчадан буён тўшакка михланиб қолган Тожи момо бугун ўзини бироз енгил ҳис қилди. Баҳор нафаси уфуриб турган ташқарига соғинч билан боқди. Мовий осмон шишадек тиник, қушлар шодон чуғурлар, куртак отиб япроқ ёзаётган дов-дарахтлар майин шабадада оҳиста чайқаларди. Тожи момо дориламон ўтган кунларини эслади. Фасллар келинчаги кўклам, яшил либосини кийиб таширф буюрганида дошқозонда сумалак пиширар, баҳорни соғинган хотин-халаж, тол баргакларидан сочиға попук таққан қизалоқлар, шўх болакайлар яйраб ўйнашарди. Момо инқиллаб-синқиллаб деразани очди, юзига урилган кўклам нафасидан энтикиб-энтикиб симирди: “етказганинга шукр!”. Димоғига қўшиникидан таралаётган ялпиз пичак ҳиди урилди: “Санобар пичак ёпяпти, шекилли”, кўнгли сўст кетди, қани бир тишламгина бўлса, кўкка етказганига шукр қилиб, кўзига суртиб еса...



Ҳанифа тоқчага суюниб дераза ёнида турган онасини кўриб, югуриб келди.

- Эна, энажон, сизга туриш мумкин эмас, ҳали тўлиқ соғайиб кетганингиз йўқ.
- Қизим, хавотирланма, анча дурстман, сезяпсанми, қара, Санобархонникидан хушбўй ялпиз пичак ҳиди келяпти. Эсингдами, кўкламда ариқ бўйларида илк ўниб чиққан ялпиздан териб келардинглар, сизларга тандир-тандир пичак ёпиб берардим. Қандай ажойиб кунлар эди... - Тожи момо кўзларини бир зум юмиб тамшанди.
- Невараларингиз мактабдан келсин, ялпиз тердириб келиб, эртага ўзим сизга пичак ёпиб бераман. Бугун кеч бўлди, ҳўпми, энажон.
- Қизим, Санобархон биттагина пичагидан бермасмикан, жуда соғинибман тансиқ таомни.
- Қайдам, ноқулай бўлмасмикан сўраб чиқсам.
- Майли, хижолат бўлсанг, чиқмай қўя қол. Биласан, Санобархоннинг феъли торроқ, тагин малол келмасин, - Тожи момо тамшаниб ютинди.

Ҳанифа онаси кўклам тансиқ таомини жуда қўмсаганини сезди. Райини қайтаргиси келмади.

- Ҳозир, энажон, - у ўрнидан туриб чиқиб кетди.
- Ассалому алайкум, Санобар опа, ҳорманг, қўлингиз дард кўрмасин, жуда пазандасиз-да, пичагингиз ҳиди бутун қишлоққа таралляпти-я!
- Валайкум ассалом, жуда мактаб юбормадингизми, Ҳанифахон? Келинг! - Санобар хушламайгина манзират қилди ва пичакни ёглаб, тоғорага солар экан, қутилмаган ташрифдан норози бўлгани шундоқкина биллиниб турарди.
- Ҳа, айтгандай, момом яхшими, тузалаптими? - сўраган бўлди тил учиде.
- Раҳмат, бугун анча дуруст, пичагингизнинг хушбўй ҳидидан ўрнидан турди, - деди Ҳанифа муддаосини қандай айтишни билмай ҳазиллашиб. - Иккитагина берасизми, деб чиқкандим.
- Буни қарангки, шошилиб озгина қилибман. Ҳеч бўлмаса, болаларимнинг оғзига бир тишламдан тегсин деб ўтирибман, кўпроқ бўлганида момомга иккита эмас, ўнта берардим, узр Ҳанифахон. Хафа бўлмайсиз-да.

Санобар Ҳанифанинг юзига бир шапати ургандай бўлди. У ҳеч қачон бундай мулзам бўлмаган эди. Бу аёлнинг зикналигини била туриб, пичак сўраб чиққанига пушаймон бўлди. Онасининг ёнига қуруқ қўл билан қандай қайтади? Ҳали хаёлига келмаганига қаранг. У дарҳол ўкаси Ботиржонга қўнғирок қилди.

- Ҳа, тинчлики, опа, ҳозир ишдан қайтапман, беш дақиқада етиб бораман!
- Тинчлик, тинчлик, уя, хавотир олма, энамнинг ялпиз пичак егиси келибди. Йўл-йўлакай бозордан олиб келасанми, дегандим.
- Ҳўп, опа!
- Мана, эна, пичак, узр бироз куттириб қўйдим, ҳали тайёр бўлмаган экан, - Ҳанифа дастурхон ёзиб пичакни қўйди.

Тожи момо совиб қолган таомни кўриб таъби тортмади. У ҳозиргина тандирдан узилганга ўхшамасди. Ҳаммасини тушунди: “Ҳай қурумсоқ Санобар, биттагина пичакни кўзи қиймабди-да”. Момонинг иштаҳаси бўғлиди. Дастурхондаги пичакка қаради. Унда ҳали димоғини қитиқлаган хушбўй ялпиз ҳиди ҳам, баҳор нафаси ҳам йўқ эди.

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.

*O'zbekiston Badiiy akademiyasi
a'zosi, akademik Nuriddin
Kalonov respublikamizda
rangtasvirchi rassom sifatida
nom qozongan. Uning nafaqat
yurtimizda, balki ko'plab
xorijiy mamlakatlarda shaxsiy
ko'rgazmalari tashkil etilgan.
75-bahorni qarshi olayotgan
taniqli rassomning ijod
namunalaridan bahramand
bo'ling.*



ВАТАНни қандай СЕВМОҚ керак?

Таниқли тарихчи олим, археолог

Амриддин Бердимуродовнинг “Ватан ҳаққиға муножот” номли китобини ўқиб



Очиғи, кўп йиллик педагогик фаолиятим туфайли ва архитектура соҳасига оид асарларнинг муаллифи сифатида ўзимни маънавият ва маърифат таригботчиси, Ватанни бошқалардан бошқача севаман, деб ҳисоблаб юрардим. Ушбу китобни ўқиб, ҳаддим пасайди ва аксинча, маънавият-маърифатга, унинг дошқозони бўлган Ватанимга муҳаббатим янада ошди, ўн чандон мустаҳкамланди.

Аввало, китобнинг ёзилиш услуби ўзига хос. Биринчидан, муаллифнинг Ватан ҳақида келтирган маълумотлари ниҳоятда қизиқарли, бир-бирини тўлдириб боради. Иккинчидан, муаллифнинг ҳар бир фикри, Ватан ҳақидаги маълумотлари ҳаётий образларда гавдалантириладики, унинг бош марказида муаллифнинг ўзи эмас, сўзи туради. Ватанни севамоқ мавзусида бундай усулда ёзилган китобларни жуда кам учратасиз. Китобда келтирилган асосий ғоя ва ҳақиқат мазмунини камин шундай англадим:

Ватан Она каби муқаддас-дир! Она эса Ватан каби. Инсон онасини бой ёки камбағаллигига қараб эмас, онаси бўлганлиги учун севади. Шундай экан, инсон ўз Ватанини туғилиб ўсган жойи бўлганлиги учун севиши керак. Ватанни севамаслик эса унга хиёнатдир! Ўз Ватанини севаман одам ҳеч нарсани сева олмайди.

“Ватан, бу – маълум бир ерда яшган халқлардан авлодларга мерос бўлиб ўтган муқаддас тупроқдир. Биз яшаётган қулба, қаср, қишлоқ ёки шаҳар ҳам шу тупроқдан бунёд бўлган. Шу тупроқ бизни кўтариб туради, ризқ-рўз беради, вафот этганларимизни ўз бағрига олади”, деб ёзади А.Бердимуродов.

Тўғриси айтсам, китобни ўқиш чоғида баъзан кўнглим бўшаб, кўзларим намланиб турди.

“Ҳа, бутун инсоният ва ҳайвонот ҳамда наботот оламининг тирикчилиги ҳам шу тупроқ – ер билан боғлиқдир. Қушлар ҳар қанча баланд парвоз қилмасин, уларнинг ҳам ризқу бўзи шу тупроққа сочилган. Бургут ҳар қанча баланд чўққига ин қуриб яшамасин, у ҳам ерсиз, шу тупроқсиз яшай олмайди”, деб ёзади Амриддин Бердимуродов.

Тупроқсиз, сувсиз ҳаёт йўқ. Кимки ва нимаики ерсиз яшай олмаса, у шу ер озуқаси – сувсиз ҳам яшай олмайди. Барча ер ости ва ер усти бойликлари ҳам шу Ватанникидир. Шунин билангки, биз севган Она Ватанимизнинг жон томирлари бор. Бу жон томирлар нафақат тупроқ, сув, ҳаво ва қуёш, балки қадимий анъаналар, яъни ота-оналаримиз фарзандларига, бобо-бувиларнинг набира ва эвараларига берадиган ўғитлари, панд-насихатлари ва ҳикмати сўзларидир.

Муаллиф фикрича, “Ватаннинг яна бир жон томири, шу Ватанда яшаётганларнинг инсофли, диёнатли, қаноатли бўлиши, бир-бирини қадрлаб, бор қуч-ғайрати,

меҳр-муҳаббатини шу Ватанга бағишлагани, ундан озуқа олгани бўлса керак”.

“Ватаннинг навбатдаги жон томири, шу Ватандаги эркакларнинг аёлларига бўлган меҳр-муҳаббати, ғамхўрлигидадир. Чунки аёлдан, онадан айро Ватан йўқ. Аёлларга, онага, опа-сингилларга, амма-холаларга меҳр кўрсатиш Ватанга меҳр кўрсатиш, уни севишининг бир туридир. Ватаннинг жон томирларининг яна бири – шу заминда яшаб ўтган улуғ инсонларнинг буюк хизматлари, улар қолдирган ёрқин хотиралари, миннатдор авлоднинг эса уларга кўрсатадиган ҳурмат-эҳтиромларидан озуқа олишдадир. Ва яна Ватаннинг жон томири, шу Ватан халқининг урф-одатларига, миллийлигига, Ватан шаънига содиқлигида, ор-номусида, ўзга юртларда бўлиб ҳам ўз-лигини, ўзбеклигини унутмайдиган ориятли одамларнинг борлигида, оналарнинг аллаларида, халқнинг қуй-қўшқларида, ўлану алёрларида, уларнинг оҳангларидан озуқа олишлигида ҳамдир”, деб тушунтиради Амриддин Бердимуродов.

Маҳдуми Аъзам Дахбедий “Ватан – инсон қалбига жойлашган бутун бир мамлакатдир” деб ёзган экан. Бироқ инсон қандай қилиб ва қай ҳолатда ўз қалбига ўша бутун бир мамлакатни, яъни Ватанини жойлаштира олади? Қачонки, у Ватанини дилдан сева. Хўш, қачон у Ватанини дилдан сева олади? Қачонки, у шу Ватанда ўз бахтини топа олса! Савол: Бахт нима ўзи? Бахт – бу, шу Ватанда туғилиб ўсишинг, тарбия ва таълим олишинг, оила қуриб фарзанд кўришинг, соғлигинг ва касб-коринг, меҳнатсеварлигинг, оиланг, касбининг севишинг, уни ардоқлашинг, қадрига етишинг, садоқатинг, меҳрибонлигинг, майин мулоқотинг ва табассумингдир.

Магарки “Ватанни севамоқ йймондан” экан, уни севамоқ учун Ватан тарихини билмоқ керак. Кимки ўз Ватанининг тарихини билса, унинг сарҳадлари-ю, “сиймосини” тасаввур қилса, аждодларининг кимлигини ва улар шу Ватан учун қандай буюк ишларни амалга оширганлини, бизга қолдирган моддий ва номоддий меросини, маданият ва тамаддун асосларини, қадрият ва урф-одатларини билса, тушунса, ўшандагина ўзлигини, ўз ҳаққини била олади. Ўзлигини, ўз ҳаққини ва Ватан ҳамда ватандошлари олдидаги бурчини билган одамгина Ватанини сева олади! Ватанини севаман одам ўзини ҳам сева олмайди. Ватан ҳаққиға ёзилган муножот менда ана шундай таассурот қолдирди.

Китобни ўқиб чиқиб, ўйлаб қолдим: хўш, мен бир ижодкор педагог олим, меъмор, ёшлар мураббийси сифатида Ватанни қанчалик севадим, фуқаролик бурчим каби ёки ундан зиёдроқ тарзда сева олдимми? Барчамиз, шоирлар, ижодкорлар, педагоглар, олимлар, арбоблар, ватандошлар Ватанни севамиз деймиз. Шоирлар шеър ёзади, ёзувчилар қисса, роман, олимлар илмий кашфиётлар қилади, тadbиркорлар яратади, бунёд этади... Хўш, мен Ватан учун нима қилдим, уни қандай севадим?!

Мен архитектурашунослик илму фанларини ёритишга қаратилган 30 га яқин китоблар ёздим. 2 нафар фан номзодини, 14 нафар архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори, 2 нафар фан докторини тайёрладим. Китобларнинг қайси бирларини талабалар учун, бошқаларини эса ўша талабаларни ўқитадиган домлалар, мутахассислар учун ёздим. Улар орасида илмий-оммабоп тарзда ёзилган, оддий халққа, зиёлиларга ҳам мўлжалланган, ўз Ватанини севган, уни улуғлаган, Ватанни деб завқ-шавқли ҳамда изтиробли даврларни бошидан кечирган, захмат чеккан

улуғ инсонларнинг ўз Ватани, халқи учун бажарган улкан бунёдкорлик, шаҳарсозлик, меъморчилик, эл-юрт ободончилиги, маъмурчилик, боғ-истироҳатчилиги, маданият ва санъат, илму фан ривожига каби ишларига бағишланган китобларим ҳам бор. Китобларимдаги бу инсонлар, Ватанини севишда, уни ардоқлашда, мадҳ этишда ҳаммага намуна бўлган буюк бобоқолларимиз – Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва бошқа темурийлар ва бобурийлардир.

Менга Ватани қандай севишни уларнинг ҳаёти, босиб ўтган ҳаёт йўли, Ватан учун чеккан заҳматлари ва хизматлари ўргатган. Улар ҳақида – “Алломалар олами”, “Улуғбек яратган маънавият”, “Бунёдкор бобурийлар”, “Темурийлар маънавияти ва маданият”, “Темурийлар архитектураси тарихи” номли китобларни ёзиш жараёнида менда Ватанини севиш ҳиссиёти кучайди. Булар Ватанимни севишим учун биринчи, дастлабки туртки, асос бўлса, иккинчиси, бу Ватанини ўз мутахассислигим, архитектура фани, унинг назарияси ва тарихи, меъморий бинолар типологияси, архитектуравий лойиҳалаш ва композиция асослари, меъморий шакллар гармонияси, ландшафт архитектураси ва дизайни, боғ-паркчилик санъати, меъморий ёдгорликларни таъмирлаш ва тиклаш бўйича ёзган китобларим, илмий янгиларим ва кашфиётларим билан севганимдир. Чунки менга ана шундай ишларни амалга оширишимга шу Ватан макон ва имкон берди. Ва энг асосийси, менинг туғилиб ўсган Она Ватаним – Ўзбекистонни том маънода билишим, кўриб ҳис қилишим, уни танишим бўлди.

Ҳа, мен уни ўз кўзим билан кўрдим, унинг қишлоқларию шаҳарлари, кенг далалари, боғу бўстонлари, тоғу тошлари, сўлим гўшалари, қўлу дарёлари, чўлу даштлари, сарҳадларини, энг муҳими, шу Ватанда яшаб меҳнат қилаётган инсонларни, ёшу қарини, Ватан фидойиларини кўрдим. Улар билан танишдим, дўстлашдим, суҳбатларини олдим. Билдимки, улар мендан яхши одамлардир.

Ва ниҳоят, Ватанини том маънода севиш учун унинг шонли тарихини, қайғули ўтмишини ҳам билмоқ кераклигига амин бўлдим. Мана шунинг учун ҳам, менинг архитектура тарихи бўйича ёзган асарларим Ватан тарихи билан ҳамоҳанг ва муштарак ёзилди. Мана шуларнинг барча-барчаси менинг Ватанимни қанчалик севишимга гувоҳдир. Яна шунинг билан, сен туғилган, сенинг фарзандларинг, аждодларинг туғилиб ўсган, яшаган ва яшаётган Она Ватанини севишинг амалда кўрсатишинг, ишботлашинг керак экан. Шунда, у сенга ўзлигини чиройини очар ва сенда уни севиш ҳисси пайдо бўлар экан. Амриддиннинг муножотини ўқиб, шу фикрларни қалбимга жо этдим.

Амриддин китобда миллатимиз тарихи учун муҳим бўлган мавзу – миллатимизнинг шаклланиши ва “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши тўғрисида ҳам фикр юритиб, уни лўнда ва ишончли тарзда, оммабоп тилда тушунтириб берган.

Муаллиф ўз эссесини “Китобимни фақат бир ниятда, табарруқ Ватаним – Ўзбекистонни улуғлаш ва улуғлаттириш, севиш ва севадириш, қадрлаш ва қадрлаттириш учун ёздим”, деб тугатади.

Бу – инкор қилиб бўлмайдиган ҳақиқат. Бу ҳар бир зиёли учун ҳам фарз, ҳам қарзидир!

Ахтам ЎРОЛОВ,
архитектура фанлари доктори, Самарқанд давлат
архитектура-қурилиш университети профессори.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 523 nusxada chop etildi. Buyurtma 177. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda